FURQATNING TABIAT TASVIRIDA O‘ZBEK TILI SO‘Z BOYLIGIDAN MAHORAT BILAN FOYDALANISHI

B.Abdurahmonova
Qo‘qon DU dotsenti

DOI: ***https://doi.org/10.5281/zenodo.24040182***

Annotatsiya:*Msazkur maqolada Furqatning o‘zbek tili imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanishi haqida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘z:*Furqat, tazod, tabiat tasviri, zidlik, uyadoshlik*

Abstract: *This article examines Furqat’s skillful use of the expressive potential of the Uzbek language.*

Keywords*: Furqat, antithesis, description of nature, contrast, lexical-semantic grouping.*

Аннотация*: В данной статье рассматривается мастерское использование Фуркатом выразительных возможностей узбекского языка*

Ключевые слова: *Фуркат, антитеза, описание природы, противопоставление, тематическая близость слов.*

Furqat she’riyatida tabiat tasviri o‘ziga xos o‘rin tutadi. Shoirning bevosita yil fasllariga bag’ishlab yozilgan g’azallarida insonlarning ijtimoiy hayoti bilan bog’liq ruhiy holatlari tasvirlanadi. Ana shunday g’azallaridan biri bahor ta’rifiga bag’ishlangan “Fasli navbahor o‘ldi ketibon zimistonlar” misrasi bilan boshlanuvchi g’azalidir.

Matla’da shoir navbahor chehra ochdi. Gulistonlar sayri g’animat. Erta tongda tushgan shabnamdan sabzalar yayrab yashnadilar, deb bahor kelishini zavq bilan qarshi olinishini tasvirlaydi.

Sahar payti tabiat chiroyiga maftun bo‘lgan shoir bir oilaga ya’ni guldoshlar oilasiga mansub so‘zlarni birma bir sanash orqali (nastarin, yosuman,nargis) gullarining yuz ko‘rsatishini hayajonga to‘lib tasvirlaydi. Shoir qishning o‘lkamizdan ketib,bahor kelishini tasvirlashda antonym so‘zlardan foydalanib, chiroyli bir manzarani o‘quvchi ko‘z o‘ngida quyidagicha namoyon qiladi:“qish o‘lkamizdan chekinib, bahor fasli keldi, do‘stlar gulistonlarni sayr eting, chunki bunday damlar g‘animat deydi. Matl’ada qo‘llanilgan “zimiston” so‘zi “qish” faslining fors-tojik tilidagi muqobili bo‘lib, bu so‘zning ma’nosi birinchi misradayoq yaqqol ko‘zga tashlanib turibdi. G‘azalga e’tibor qaratsak, she’rning matla’sidanoq zidlikni ko‘ramiz. Shoir antonym so‘zlardan ustalik bilan foydalanib,bahor fasli bilan qish tasviri orqali badiiy adabiyotdagi tazod badiiy tasvir vositasini mahorat bilan ishlatadi. Jumladan,shoir qorong‘u kunlar ketib, yorug‘kunlar, navbahor va zimiston so‘zlarini bir-biriga zid ma’noda qo’llash asnosida tazod san’atining go‘zal namunasini ishlatgan. Keyingi baytda Furqat tabiat go‘zalligini tasvirida qo‘shma fe’llardan foydalanadi.Sabzalarning saharda tushgan shabnamdan xursand bo‘lishi, nastarinning bahor yomg’iri suvlariga yuzini yuvishi,nargiz gulini uyqudan uyg’onib ko‘zini ochishi bunga misol bo‘ladi.

Subhidam tushib shabnam, bo‘ldi sabzalar xurram,
Gul uza tomib kam-kam, yog‘di abri naysonlar.
Nastaron yuvib yuzni, yosuman tuzib o‘zni,

© Qo‘qon davlat universiteti | O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
© “Smart Quill Publishing” nashriyoti | www.smartquillpublishing.uz

Nargiz ochibon ko‘zni intizori yoronlar.

Tongda shabnam tushib, o‘t-o‘lanlar sevindi, gul uza kam-kam bahor buluti yog‘di.Har ikkala baytda ham bahorda kuzatiladigan go‘zalliklar eks etgan. Nastarin,yosuman,nargiz gullarining ochilishi,tongda shabnam tushishi tasvirlanmoqda.

Bulbul o‘qug‘och yig‘lab subhidam xazon faslin,

G’uncha qon yutub, yuz chok etti gul giribonlar.

Misralarida husni ta’lil san’ati qo‘llangan.Husni ta’lil (arabcha – chiroyli dalillash) adabiy asarda tasvirlanayotgan biror hodisaga shoirona biror sabab ko‘rsatish, she’rda biror voqeani unga daxli bo‘lmagan boshqa hodisa bilan izohlashdir. Uning asosida muayyan bir hodisani real – hayotiy mantiq bilan emas, balki shoirona xayol – badiiy mantiq bilan “isbotlash” yotadi[195]. Shoir baytda “Bulbul tongda yig‘lab xazon fasli haqida bayon etganda, g‘uncha qon yutib yoqasini yuz chok etdi, ya’ni ochildi iborasini keltirar ekan, ikki hayotiy hodisani bir-biriga taqqoslashda iboralardan mahorat bilan foydalanadi.

Bir sahar edim uyg’oq, o‘t tutashti olamg’a,

Tog’lar chekib larza, titradi biyobonlar.

Baytida shoir tong saharda momaqaldiroq gumburlagani, yashin chaqnagani, tog’lar larzaga kelgani tasvirini beradi. Keyingi baytda esa quyosh chiqishini go‘zal satrlarda ifodalaydi. Quyosh bilan birga qalblarga xotirjamlik, yorug’lik kirgani tasvirini rassomday chizib beradi. Galdagi baytda esa qumri-yu bulbullarnini nola chekishini, gullar ularga nozu ishva bilan boqishini, buning natijasida qushlarning fig’oni yanada ortib borishini tashxis deb ataluvchi badiiy tasvir vositasi yordamida ifodalaydi.Bu go‘zal tasvir Furqatning tabiatning chinchkov kuzatuvchisi ham ekanligidan dalolat beradi.

Qumrilar qilib ku-ku, bulbul aylabon chah-chah.

Sarv-u gul uza doim tortar ohu afg’onlar.

Shor yil faqat bahor faslidan iborat bo‘lmagani, uning jazirama yozi, kuzi ham qishi bo’lgani kabi hayot ham faqat xursandchilikdan iborat emas.Hayotning ham tashvishlari, qiyinchiliklari, umrning xazoni, tiriklikning yakuni boladi. Hayotning ham mashaqqatlari, qiyinchiliklari, imtihonlari bo‘ladi. Bahor zavqi beradigan xushkayfiyatning kutilmaganda xira tortishi, ko‘ngilga g’ashlik solishi bu xursandchilikning doimiy emaslinidan dalolat. G’azalda lirik qahramonning birdan ko‘tarinki kayfiyatdan chekinib, tushkin holatdagi tasviri quyidagi misralarda ifodalanadi:

Kechtilar vafo ahli qolmayin tutib savsan,

Kiydi ko‘k qilib sunbul, zulfini parishonlar.

Furqat o‘z zamonasida yuz berayotgan ahvolni tabiatda ro‘y beradigan hodisa bilan muqoyasa qiladi.Bunda savsan, sunbul obrazlaridan foydalanadi. Savsan-sapsargul,sunbul-xushbo‘y,qora rangli o‘simlik.Mumtoz adabiyotda savsan motamzadalik timsoli sifatida, sunbul esa ma’shuqaning sochi timsoli tarzida ifoda yo‘siniga ega.Baytda vafo ahlini xarob etuvchi, sunbullarni motamzadalarga aylantiruvchi jamiyatdan noroziligini tashbeh orqali ifodalaydi. Furqatning jamiyatdan keskin noroziligi, zamondagi adolatsizlik va nohaqlikdan noroziligi, donolarning gam va tashvishda,

[195] Safo Matjonov, Sharafjon Sariyev. Adabiyot. – Toshkent. 2001-yil, 73-bet

© Qo‘qon davlat universiteti | O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
© “Smart Quill Publishing” nashriyoti | www.smartquillpublishing.uz

nodonlarning esa shodlikda vaqt o‘tkazayotganidan afsus nadomati g’azal maqta’sida o‘z ifodasini topgan:

Kuymasin bu savdoda ne uchun dimog’imkim,
Ranju g’ussada dono, kechsa shod nodonlar .

Xulosa qilib aytganda, Furqat ijtimoiy hayot tasvirini tabiatdagi hodisalar orqali badiiy ifoda etishda o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan samarali foydalangan. O‘zbek tilining so‘z boyligini badiiy san’atlar vositasida ustalik bilan ochib bera olgan ijodkorlardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.To‘xliyev B., Mirsamiqova R., Ametova O. Adabiyot (Majmua. Akademik litseylarning ikkinchi bosqich o‘quvchilari uchun). – T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010-yil.

2. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug’ati. “Akademnashr”,T.,2010,196-bet.

3.Rahmatov O’. Abadiyot gulshani.Toshkent: Sharq,2013

4.Atoulloh Husayniy. Badoyi’us-sanoyi.T., G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981

© Qo‘qon davlat universiteti | O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
© “Smart Quill Publishing” nashriyoti | www.smartquillpublishing.uz